www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Badiiy asar syujetida ruxiyat tasvirininig ahamiyati U.Hamdamninig “Yo`l” romani misolida

Shohista Toxirjonova
Xo’jaobod XTB tasarrufidagi 23-IDUM
ona-tili va adabiyoti fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Yo'l" romani misolida badiiy asar syujetida ruhiyat tasvirining ahamiyati tadqiq qilingan.
Kalit so’zlar: ruhiyat, badiiy asar syujeti, syujet liniyasi, badiiy obraz, motiv, konsentrik syujet

Inson ruhiyatini tahlil qilish ko`plab fan sohalariga taalluqli masaladir. Badiiy adabiyot borliqni idrok etish va ideal asosida qayta ishlash (badiiy obraz orqali) xizmat qilar ekan, bu badiiy obrazning ruhiyatidagi o`zgarishlar ularning yashab turgan muhitidagi joriy holatni anglash masalasiga keng o`rin beriladi. Bunday asarlar xususan I . Sulton, U.Hamdam, A.Yo`ldosh ijodida talaygina. Shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim U.Hamdamning ancha yillar avval yaratilgan “Yolg`izlik” qissasi ta`bir joiz bo`lsa qahramonning “ruhiyat kundaligi” edi. To`rt yil davomida yozilib 2015-yil tugallangan “Yo`l” romani g`oyaviy jihatdan ushbu qissaning davomi sifatida talqin qilish mumkin. Yozuvchining o`zi ham bu romanni yozish jarayonida “Yolg`izlik” qissasini eslab o`tadi:- “Yolg`izlik” degan asarimni yozganimga qariyb yigirma yil bo`ldi. Biroq haqiqiy yolg`izlik endi boshlanayotgandek[1]. Asar mutolaasi jarayonida har qanday kitobxon hech bir qiyinchiliklarsiz uning mag`zini chaqa oladi. Murakkab tasviriy ifodalardan holi, majoziy obrazlarga g`arq asar emas. Muallif kechinmalarini sodda va aniq jumlalarda ifodalagan . Shu bois asardan iqtiboslar keltirib ifodalamoqchi bo`lgan fikrlarimizdan yiroqlashmaymizda, asar syujetida ruhiyat tasvirining ifoda shakliga e`tibor qaratamiz. “Yo`l” romani konsentrik syujet asosida yaratilgan bo`lib unda qahramonlar uchta syujet liniyasida haraktlanadi. Birinchisi bevosita muallifning o`zi, ya'ni roviy. Roviy obrazi tush motivi orqali o`zining kechinmalarini insoniyatning tomchidan bunyod bo`lganiyu, uning dunyo bozorining bir eshigidan kirib rastalarni aylana-aylana boshqa bir eshikdan ortiga, asliga qaytishi; olam yaratuvchisining izmidagi har bir taqdirning maxluqlik va xoliqlik o`rtasidagi tanlovi o`z qo`lida ekanini anglagan holda bu yo`lda oshiqlik, sof muhabbat orqali Yaratganga ibodat va itoat qilishlik kerakligini his etadi. Shu o`rinda aytish kerakki, mumtoz shoirlar ijodiga xos vaxdat ul vujud falsafasi bugungi kun ijodkorining g`oyalarida ham ifodasini topyapti. Odamzod paydo bo`lgandan boshlab birma-bir vujudga kelgan diniy e'tiqodlarning to islom dinining yagona ekanini anglatish uchun Alloh o`z rasulini yuborgunga qadar inson ma`naviy-ruhiy ehtiyojini qondirishga xizmat qilgani xolis ravishda e`tirof etiladi.

Syujetning ikkinchi liniyasi tomchidan sadolar nomi bilan atalib bunda muallif shaxsi bilan birgalikda mumtoz shoirlar- Umar Hayyom, Jaloliddin Rumiy, Mashrab, galma-gal suxbatdosh do`st sifatida keltiriladi. Ularning g`oyaviy qarashlari ijodkorning fikrlarida davom etadi.

Va nihoyat syujetning uchinchi liniyasida aks etgan bobo va nabira obrazlari avlodlar o`rtasidagi genetik aloqadorlik insoniyatning ruhiy –ma`naviy qiyofasini shakllanishida muhim omil ekanini unutmaslik kerakligini anglatadi.

Asar syujetining uch liniyasining har biri o`z holicha mustaqil hikoya sifatida ko`rinsa-da, botinan bir-birini to`ldirib yakunida yaxlit umumlashmaga olib boradi. Adabiyot nazariyasi darsliklarida inson ruhiy faoliyatining aqliy va hissiy qirralariga ega ekani ta`kidlanadi[2]. Mazkur

[1] U. Hamdam."Yolg`izlik". - Toshkent: Yangi asr avlodi 2017
[2] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.- Toshkent: Akademnashr,- 2018

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

romanda ruhiyat tasviri qahramon kechinmalari asosida berilgan bo`lsa-da, uning aqliy qirrasi, ilmiy salohiyati ham o`zini namoyon qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. U. Hamdam."Yolg`izlik". - Toshkent: Yangi asr avlodi 2017

2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.- Toshkent: Akademnashr,- 2018

3. D.Quronov.v.b. Adabiyotshunoslik lug`ati. - Toshkent: Akademnashr, -2013.